

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2023- yil yanvar oyi)

1. Sanoat mahsuloti

2023- yilning yanvar oyida respublika korxonalarini tomonidan **33,6** trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **90,1** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi 75,8 foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 13,1 foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 10,6 foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish 0,5 foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi pasayishining asosiy omili qayta ishlash sanoati korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,5 % ga, - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sanoatida 8,7 %ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 4,4 %ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida fizik hajm indeksi 3,3 % ga pasayish kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yilning shu davriga nisbatan kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqaradigan sanoatida (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 121,5 %), shuningdek, koks va neft mahsulotlarini qayta ishlash sanoatida (101,4 %) ishlab chiqarish hajmi oshdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sanoatida (2022- yilning yanvar oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 38,1 %), avtotransport vositalari, tirkamalar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatida (48,9 %) hamda boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatida (53,7 %) ishlab chiqarish hajmi pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga xom neft va tabiiy gaz qazib olish sanoatida (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 94,3 %) hamda metall rudalarini qazib olish sanoatida (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 99,0 %) ishlab chiqarish hajmining pasayishi sabab bo'ldi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish o'sish sur'ati 86,3%ni tashkil etdi, shu bilan birga ularning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmidagi ulushi 25,0 %ga yetdi.

2. Inflyatsiya darajasi

2023- yilning yanvar oyida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasini aks ettiruvchi iste'mol narxlarini indeksi (INI) **100,8 %** ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha INI 101,0 % ni, no oziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha 100,6 % ni, xizmatlar bo'yicha 100,7 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar oyida yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini o'zgarishlarining ta'siri 0,44 foiz darajasini (keyingi

o'rinlarda f.d.), nooziq-ovqat mahsulotlarda 0,22 f.d. va xizmatlarda 0,16 f.d. tashkil etdi. Shuningdek, yig'ma ko'rsatkichning o'sish sur'atiga ta'siri tuzilmasida oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga umumiy o'sish sur'atinig 53,7 % i, nooziq-ovqat mahsulotlar hissasiga 26,8 % i va xizmatlar hissasiga 19,5 % i to'g'ri keldi.

O'zR MIIT-2018 bo'limlari orasida 2023- yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar hamda dam olish, sport va madaniyat sohasida INI 101,1 % ni, restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari hamda sog'liqni saqlash sohasida 101,0 % ni, kiyimlar va poyabzallarda 100,9 % ni, maishiy va boshqa tovarlar va xizmatlarda 100,8 % ni, transport sohasida 100,7 % ni, uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va uy joylarga kundalik xizmat ko'rsatish sohasida 100,6 % ni tashkil etdi. Boshqa bo'limlar bo'yicha INI 100,3 % dan oshmadi.

Bo'limlarning aholi iste'mol xarajatlari tarkibidagi salmoq vaznlarini hisobga olgan holda, 2023- yil yanvar oyidagi yig'ma INI o'sish sur'atiga oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxleri o'zgarishlarining ta'siri 0,44 f.d. ni (umuiy ta'sir tuzilmasida 53,7 %), kiyimlar va poyabzallarda 0,10 f.d. ni (12,2 %), sog'liqni saqlash sohasida 0,07 f.d. ni (8,5 %), transport sohasida 0,06 f.d. ni (7,3 %), uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va uy joylarga kundalik xizmat ko'rsatish hamda maishiy va boshqa tovarlar va xizmatlar sohasida 0,04 f.d. dan (4,9 % dan), dam olish, sport va madaniyat sohasida 0,03 f.d. ni (3,7 %) tashkil etdi. Boshqa bo'limlarning ta'siri juda past darajada kuzatildi.

3. Qurilish ishlari

2023- yilning yanvar oyida **5011,9** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 65,7 %ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 513,4 mlrd. so'mi yoki 10,2 % yirik korxonalar va tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 3359,4 mlrd. so'm yoki 67,0 %, norasmiy sektor sub'ektlari tomonidan 1139,1 mlrd.so'm yoki 22,8 % bajarildi.

4. Chakana savdo tovar aylanmasi

2023- yilning yanvar oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **15 824,7** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,6 %** ga kamaydi.

Yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 23,9 % ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining 21,8 % ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 15,3 % ga kamaygan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 78,2 % ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 10,9 % ulush bilan 1 717,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

5. Tashqi savdo aylanmasi

2023- yilning yanvar oyi yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **5 042,5** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022 yilning mos davriga nisbatan **1 490,8** mln. AQSh dollariga yoki **42,0** % ga ko'paydi. Eksport hajmi **2 082,8** mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati **+45,1** %) va import **2 959,7** mln. AQSh dollariga yetdi (**+39,8** %).

Eksport tarkibida quyidagi guruhlarda o'sish kuzatildi, jumladan: ichimliklar va tamaki o'tgan yilning mos davriga nisbatan - 2,1 m. (3,2 mln. doll.)ga, kimyo mahsulotlari va ulardan tayyorlangan mahsulotlar 29,6 % (16,6 mln. doll.)ga, turli xil tayyor buyumlar 13,3 % (8,9 mln doll.)ga hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 25,7 % (23,1 mln. doll.)ga ko'paydi.

Import tarkibida quyidagi guruhlarda ham o'sish kuzatildi, jumladan: mashinalar va transport asbob-uskunalari - 87,6 % (630,2 mln. doll.), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar 33,5 % (37,2 mln. doll.) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar - 13,4 % (42,2 mln. doll.) to'g'ri keladi.

6. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari

2023- yilning yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **322,6** trln. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **7,3** % ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlarning 17,3 % ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri 4,3 punkt), transport xizmatlari 8,3 %ga (o'sishdagi ta'siri 1,8 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 21,6 %ga (o'sishdagi ta'siri 1,4 punkt), ta'lim sohasidagi xizmatlar 10,3 %ga (o'sishdagi ta'siri 0,4 punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishi nisbatan pastligi savdo xizmatlari hajmining 1,7 %ga (ularning salbiy ta'siri 0,4 punktni tashkil etdi), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar 17,0 %ga (-0,3 punkt), shuningdek, yashash va ovqatlanish xizmatlari 1,6 %ga (-0,1 punkt) pasayishi bilan izohlanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning eng katta hajmi moliyaviy xizmatlar (7,6 trln.so'm, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 117,3 %), transport xizmatlari (7,2 trln.so'm, 108,3 %) va savdo xizmatlari (7,0 trln.so'm, 98,3 %)ga to'g'ri keladi.

7. Korxonalar va tashkilotlar soni

2023- yil 1- fevral holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) **572,0** mingtani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 503,8 mingta). O'tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining o'sishi 7,2 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 7,9 foiz) tashkil etdi. Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng yuqori o'sishi Xorazm (12,8 foiz), Qashqadaryo

(11,6 foiz), Samarqand (9,0 foiz), Jizzax (8,4 foiz), Navoiy (7,9 foiz), Buxoro (6,7 foiz), Namangan (6,7 foiz) viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (9,7 foiz) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining eng yuqori o‘sishi savdo (11,6 foiz), axborot va aloqa (10,7 foiz), tashish va saqlash (9,2 foiz), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (8,8 foiz), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (7,9 foiz), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (5,2 foiz), qurilish (3,5 foiz) hamda sanoat (2,3 foiz) faoliyat turlariga to‘g‘ri kelgan.

2023- yil yanvar oyida respublikada 6,1 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5,9 mingtani tashkil etdi.

2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 15 481 tani tashkil etdi. O‘tgan yil bilan solishtirganda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi 15,6 % ni yoki 2 088 tani tashkil etdi. Ulardan 6 300 tasi qo‘shma korxonalar va 9 181 tasi xorijiy korxonalar tashkil etgan.